

Samimiy qutlovlar



Prezident Shavkat Mirziyoyevning tug'ilgan kuni munosabati bilan xorijiy davlatlar, hukumatlar va parlamentlar rahbarlari, taniqli davlat va jamoat arboblardan qutlovlar kelmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin o'z maktubida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotgani, mustahkam do'stlik rishtalarini g'oyat qadrlashini ta'kidlagan. Xitoy rahbari davlat tashrifi bilan O'zbekistonga kelishga tayyor ekanini, birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan ko'p qirrali hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga tayyorligini bildirgan.

Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In koronavirus pandemiyasiga qaramay davom etayotgan faol muloqot va almashinuvlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarning haqiqiy ahamiyatidan dalolat berayotganini ta'kidlagan.

Janubiy Koreya rahbari yaqin hamkorlik tufayli mamlakatlarimiz inqirozni yengib o'tishi va ikki tomonlama aloqalar yangi taraqqiyot darajasiga yetishiga ishonch bildirgan.

Shuningdek, quyidagilar ham samimiy tabriklar yo'llashgan:

- Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi;
- Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev;
- Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko;
- Moldova Respublikasi Prezidenti Igor Dodon;
- Ukraina Prezidenti Vladimir Zelenskiy;
- Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hasan Ruhoniy;
- Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich;
- Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

Manba